Xo'jalik yurituvchi subyektlarda ichki auditni tashkil qilishning nazariy asoslari	968
Maxmudova Sharifa Elmurodovna , tayanch doktorant	
Tijorat banklarining chakana xizmatlari va ularga ta'sir etuvchi omillar	972
Xudayarova Xurshida Abdunazarovna , PhD	
Xalqaro lizing munosabatlarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda uning rolini oshirish	978
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Raqamli banklar faoliyatini tahlil qilish (Tinkoffbank misolida)	983
Nabiyeva Feruza Odilovna , tayanch doktorant, Parpiyeva Ra'no Abdurasulovna	
Пути организации инновационных процессов в Узбекистане	988
Насиров Дилшод Фарходович	
Цифровизация банков: риски и стратегии управления финансовыми активами в цифровой эпохе.....	992
Кодиров Бобур Абдулбори угли , магистр	
Tijorat banklari depozit bazasini optimallashtirish masalalari	1000
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Tijorat banklari operatsion xarajatlarini optimallashtirishning ayrim jihatlari	1005
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Bank kapitali barqarorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlardan foydalanish holati.....	1010
Vasiyev Alisher Samiyevich	
O'zbekistonda fiskal va monetar siyosatni muvofiqlashtirish amaliyotining institutsional tahlili	1014
Hakimjon Hakimov	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1019
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Korxonalarining investitsiya faolligini ta'minlashda soliq rag'batlarining samaradorligini oshirish	1024
Ilyasova Barno Axmadovna , mustaqil tadqiqotchi	
Xitoy sug'urta bozorida onlayn sug'urta xizmatlar tahlili.....	1028
Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)	
Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda innovatsion bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari	1033
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi , PhD	
Soliq ma'muriyatchiligi faoliyati samaradorligini matematik simulyatsion modellashtirish.....	1041
Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	
O'zbekistonda akademik mustaqillikni qo'llab-quvvatlash: 2022-yilgi AFI tadqiqotidan olingan tushunchalar va ilmiy istiqbollor	1046
Yuldashev Feruz Isroil o'g'li , tayanch doktorant	
Mintaqaviy rivojlanishdagi nomutanosiblikni tartibga solish funksiyalari.....	1052
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori	
Tijorat banklarining innovatsion marketing strategiyasi samaradorligini oshirish yo'llari	1058
Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning marketing strategiyasi va uning amal qilish mexanizmi	1064
Muxtorova Umida Karimovna , katta o'qituvchi	
Аспекты здоровья и питания: влияние продукции животноводства на устойчивые и здоровые рационы	1070
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент	
Роль платежных систем в функционировании электронной коммерции	1075
Бабаева Гузаль Яшиновна , доцент кафедры	
Oilaviy biznes bo'yicha jahon amaliyoti tahlili	1081
Toshpo'latov Murodulla Sobirjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining tutgan o'rni.....	1086
Jo'rayev Dilshod Maxmudjonovich	
To'qimachilik sanoat korxonalarida marketing strategiyasi.....	1091
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
Ibodullayev Abror Axrorovich , dotsent, Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li , Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health	1100
Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli , Avazov Ilkhom Ravshanovich	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан	1104
Тураева Адиба Икрамовна , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices	1109
Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri	1117
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich , PhD	
Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
Kalandarova Nargiza Narimanovna , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari	1135
Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
Xolikov Sarvar Xayitbayevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzдорliklar muammosining maqbul yechimlarini topishning zarurati.....	1143
Ruzimuradov Shuxrat Xusanovich	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O'RTASIDAGI MUDDATI O'TGAN QARZDORLIKLAR MUAMMOSINING MAQBUL YECHIMLARINI TOPISHNING ZARURATI

Ruzimuradov Shuxrat Xusanovich

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Naqd pul muomalasini tashkil etish departamenti bo'lim boshlig'i, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda muddati o'tgan qarzdorliklar muammosiga duchor bo'lgan xo'jalik subyektlarining sonini oshib borayotganligi, muddati o'tgan qarzdorliklarga doir axborotlarning hajmini ham oshishiga sabablar o'rganilgan. Bundan tashqari, ushbu muammoning amaliy yechimlari nazariy asoslar bilan berilgan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar; muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning joriy holati.

Abstract: In this article, the reasons for the increase in the number of economic entities facing the problem of overdue debts and the increase in the amount of information about overdue debts are studied. In addition, practical solutions to this problem are given with theoretical foundations.

Key words: overdue debts between business entities; current status of overdue receivables and payables.

Аннотация: В данной статье изучаются причины увеличения количества субъектов хозяйствования, столкнувшихся с проблемой просроченной задолженности, и увеличения количества информации о просроченной задолженности. Кроме того, даны практические решения этой проблемы с теоретическим обоснованием.

Ключевые слова: просроченная задолженность между субъектами хозяйствования; текущее состояние просроченной дебиторской и кредиторской задолженности; этапы обработки информации о текущем состоянии просроченной задолженности, взаимосвязанные пары участников неплатежей.

KIRISH

Iqtisodiyot – insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab tizimlardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotni qay darajada rivojlanganligi va aholining turmush darajasi bevosita bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlardir. Iqtisodiyotni uzluksiz taraqqiy etishini ta'minlash va uni keyingi rivojlanish boskichiga olib chiqish uchun esa har bir davlat o'zining makroiqtisodiy muammolarini maqbul yechimlarini topishga intilishi lozim.

Biroq, bugungi kunda iqtisodiyot nazariyasi ancha rivojlangan bo'lsada, bir qator muhim makroiqtisodiy muammolarning yechimini topishda foydalanish mumkin bo'lgan nazariy bilimlar hamda iqtisodiy richag va mexanizmlar hanuzgacha mavjud emas. Shu sababli ham xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelganda, uning joriy holatini tahlil qilish va bozor tamoyilariga mos keluvchi iqtisodiy richag va mexanizmlar yordamida uning maqbul yechimlarini topish iqtisodiy tizim taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni grafikli ko'rinishini shakllantirish va uni tahlil qilish orqali muammoning maqbul yechimlarini topishga doir mavjud nazariy bilimlarga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu muammoning maqbul yechimlarini topish maqsadida bir qator olimlar, iqtisodchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.



Xususan, D.O. Chuxlansev, A.N. Katulev, G.V. Kolesnik, V.N. Mixeyev, N.N. Kalitkin, A.A. Samarskiy, A.P. Mixaylov va boshqa bir qator iqtisodchi olimlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar zanjirsimon ketma-ketligining grafikli ko'rinishini shakllantirish hamda mazkur grafiklarni tahlil qilish asosida muammoni imkon qadar qisqartirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Iqtisodchi olim Frenk Dj. Fabotssini ta'kidlashicha: "Kompaniya zarar ko'rgan holda faoliyat yuritmasada, muddati kelgan majburiyatlar bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi oqibatida qiyin moliyaviy holatga tushib qoladi yoki bankrot bo'ladi".

Biroq, ushbu olimlar tomonidan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi qarzdorliklarni tahlil qilish va ularning grafikli ko'rinishini shakllantirish orqali ushbu qarzdorliklarni qisqartirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar bozor tamoyillariga mos emas hamda nazariy jihatdan to'liq ifoda etilmagan. Bunda to'liq shakllantirilmagan hamda nazariy jihatdan asoslab berilmagan taklif va tavsiyalar yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni qisqartirishga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ushbu olimlar tomonidan bildirilgan ilmiy tavsiyalar va takliflar bugungi kunga qadar amaliyotga tatbiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorlikka oid tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Sohadagi o'zgarishlar tendensiyalarini umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullarini keng foydalaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar muammosi ham bugungi kunda dunyodagi barcha davlatlarda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining har choraklik byulletenida qayd etilgan ma'lumotlarning tahlili 2023-yilning 1-iyun holatiga korxonalar va tashkilotlarning (budget va boshqa notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalardan tashqari):

- debitorlik qarzlari 259 064,8 mlrd.so'mni (2021-yilning mos davriga nisbatan 115 844 mlrd.so'mga yoki 80,9 foizga oshgan), muddati o'tgan debitorlik qarzlari 6 540,5 mlrd.so'mni (2021-yilning mos davriga nisbatan 4 138,7 mlrd.so'mga yoki 172,3 foizga oshgan);

- kreditorlik qarzlari 282 419 mlrd.so'mni (2021-yilning mos davriga nisbatan 119 344,5 mlrd.so'mga yoki 73,2 foizga oshgan), muddati o'tgan kreditorlik qarzlari 7 473,1 mlrd.so'mni (2021-yilning mos davriga nisbatan 5 217,4 mlrd.so'mga yoki 231,3 foizga oshgan) tashkil etgan.

Mazkur qarzdorliklar dinamikasi quyidagi diagrammada keltirilgan(1-rasm).



1-rasm. 2021–2023-yillarning 1-iyun holatiga korxonalar va tashkilotlarning qarzdorliklari dinamikasi (mlrd.so'mda)



Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, mazkur Statistika agentligi tomonidan *budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarning* qarzdorliklari bo'yicha ham ma'lumotlar to'planib, statistik byulletenda aks ettirilganida, ko'rsatkichlar yana bir necha mlrd.so'mga oshgan bo'lar edi.

Barchamizga ma'lumki, har qanday davlatda ham muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosi ko'lamini oshib borishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini susayishiga va iqtisodiy aloqalarda ishtirok etuvchi tomonlarning o'zaro hamkorlikdan manfaatdorliklarini keskin kamayishiga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalar va keltirilgan raqamlardan ko'rinib turibdiki, muddati o'tgan qarzdorliklar muammosi nafaqat biror bir tanlangan davlat uchun balki, butun jahon hamjamiyati va iqtisodiyoti turli darajada rivojlangan barcha davlatlar uchun ham bugungi kunning eng dolzarb, o'z yechimini kutayotgan masalalaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli iqtisodiy tizimni barqaror hamda mamlakat hududlarini o'zaro mutanosiblikda rivojlanishini ta'minlashda iqtisodiy-matematik usullardan foydalangan holda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarning zanjirsimon ketma-ketligini tahlil qilish hamda ularni qisqartirish yuzasidan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos keluvchi tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini tasavvur qilish qiyin emas.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 12-apreldagi "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi O'RQ-763-sonli Qonuni ning 3-moddasida esa "*to'lovga qobiliyatsizlik – sud tomonidan e'tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo'yicha kreditorlar talablarini to'la hajmda qanoatlantirishga va (yoki) soliqlar hamda yig'imlar bo'yicha o'z majburiyatlarini to'la hajmda bajarishga qodir emasligi*", deb belgilab berilgan.

Haqiqatan ham to'lovga layoqatsiz bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektning muddati o'tgan qarzdorliklar muammosiga duchor bo'lishining ehtimoli ancha yuqori bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lovga layoqatsizligi – bu xo'jalik faoliyati samaradorligini shunday bir darajasiki, bunda xo'jalik yurituvchi subyektning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini, shuningdek, o'zining butun faoliyati davomida jamlagan likvidli aktivlarini o'z majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplash uchun yetarli emasligidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda aylanma mablag'larning yetishmasligi yoki ushbu mablag'larni o'z vaqtida undirilmagan debitorlik qarziga aylanganligi, shuningdek, ro'y berayotgan o'zgarishlarga (qonunchilikni o'zgarishi, siyosatni o'zgarishi, iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmlarini o'zgarishi, bozordagi vaziyatni o'zgarishi va boshqalarga) tez va to'liq moslasha olmasligi ham xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali tarzda faoliyat yuritish doiralarini keskin cheklaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar muammosini ma'muriy usullar yordamida yoki uchinchi bir tomonning aralashuvchi bilan ijobiy hal etilishiga erishib bo'lmaydi. Zero, iqtisodiy muammolarning asl mohiyati va uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilmagan holda ularni hal etish bo'yicha amalga oshirilgan ma'muriy tadbirlarni qanday natijalar bilan tugagani hamda ularning asoratlari, sobiq "Ittifoq" davrida o'tkazilgan tajribalardan bizga yaxshi ma'lum.

Xorijiy davlatlarda esa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati to'lanmagan qarzdorliklarni undirish bilan Qarzlarni undirish agentliklari (Kollektorlik agentliklari) shug'ullanib kelishmoqda. Bu xususda internet tar-mog'ida bir qancha maqolalar mavjud. Xususan, "Biznes qarzlarini undirish qoidalari: bilishingiz kerak bo'lgan hamma narsa" maqolasida qayd etilishicha: *kreditorning qarzni undirish bo'yicha amalga oshirgan harakatlari kutilgan natijani bermasa, qarzdorni yozma ravishda ogohlantirganidan so'ng, kreditor qarzdorga doir barcha ma'lumotlarni tegishli choralarni ko'rish uchun kollektorlik agentligiga topshiradi.*

Biroq, kollektorlik agentliklari va ularning faoliyati, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni qisqartirishning eng maqbul va qulay uslubi deb bo'lmaydi. Kollektorlik agentligi tomonidan ikkita xo'jalik yurituvchi subyektni o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar muammosi tahlil qilinib, bosqichma-bosqich tegishli choralar ko'rilguniga qadar, boshqa bir nechta xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida qarzdorliklar muammosi kelib chiqishi tabiiy bir holdir.

Biz XXI asrda, axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda mazkur qarzdorliklarning joriy holatini mutassaddi davlat idorasi tomonidan makroiqtisodiy darajada tahlil qilish va bozor tamoyillariga mos keluvchi usullar yordamida muammoni imkon qadar qisqartirish bo'yicha zaruriy choralarni o'z vaqtida ko'rilishi lozim degan g'oyani ilgari surmoqdamiz.

Buning uchun esa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar muammosiga tizimli tarzda yondashib, uning joriy holatini tahlil qilish talab etiladi. Bunda, yetkazib berilgan tovarlar, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar hamda vaqtinchalik foydalanish uchun qarzga olingan mablag'lar va unga hisoblangan foizlarni o'z vaqtida, to'liq to'lab berilmasligi, iqtisodiy munosabatlar bo'yicha o'zaro bog'langan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida muddati o'tgan qarzdorliklarning zanjirsimon ketma-ketligini yuzaga kelishining ehtimoli juda yuqori ekanligini e'tirof etishimiz muhim.



Demak, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarning joriy holatini tahlil qilish hamda iqtisodiy richag va mexanizmlar yordamida zaruriy tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirish uchun esa tegishi nazariy bilimlarni shakllantirishimizda, yuqoridagi mulohazalarga tayanishimiz lozim.

Bu borada italiyalik iqtisodchi olim Matteo Tomazelli o'zining 2017–2018-yillardagi "Iqtisodiy o'sish va davlat qarzi: qarzdorliklar o'z chegaralaridan chiqib ketganda" nomli ilmiy ishida quyidagilarni e'tirof etgan: "Butun dunyo bo'ylab 2008-yilda boshlangan "buyuk turg'unlik" katta moliyaviy nomutanosibliklarni yuzaga keltirib, barcha davlatlarning qiziqishi va e'tiborini qarzdorliklar muammosiga qaratishga undadi. Bunda, asosiy masalalardan biri, qarzdorliklar muammosini tadqiq qilish, o'rganish uchun uzluksiz nazariy asoslarni hanuzgacha mavjud emasligidir".

Haqiqatan ham xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarga doir axborotlarni tahlil qilish, shuningdek, mazkur qarzdorliklarning zanjirsimon ketma-ketligini ifodalovchi grafiklarni shakllantirish va ushbu muammoni ijobiy hal etishning maqbul yo'llarini aniqlash bo'yicha bozor tamoyillariga mos keluvchi hamda amaliyotga bevosita qo'llash mumkin bo'lgan mukammal nazariya, mexanizm yoki usul mavjud emas.

Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni qisqartirish, ya'ni muammoning maqbul yechimlarini asoslangan holda topishning mukammal iqtisodiy-matematik usullari hanuzgacha yaratilmaganligi sababli – mazkur muammo bugungi kunga qadar birorta mamlakatda ham o'zining ijobiy yechimini topgani yo'q.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar muammosini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur muammo xo'jalik yurituvchi subyektlarda o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishlari uchun pul mablag'larining yetishmasligi oqibatida yuzaga keladigan muammodir. Shu sababli ham biz muomaladagi pullar miqdorini asossiz ravishda oshirmagan holda ham iqtisodiy mexanizmlar yordamida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarni imkon qadar qisqartirish mumkin degan fikrni ilgari surmoqdamiz.

Bir so'z bilan aytganda, biz o'z oldimizga xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklarning joriy holatini tahlil qilish hamda muomaladagi pullarni asossiz ravishda oshishiga yo'l qo'ymagan holda mazkur qarzdorliklarni imkon qadar qisqartirish imkoniyatini beruvchi uslubiy asoslarni hamda uni amaliyotga tatbiq etishga xizmat qiluvchi iqtisodiy richag va mexanizmlarni ishlab chiqish borasida fundamental tadqiqotlar olib borishni maqsad qilib qo'yganimiz.

Rossiyalik olimlarni ta'kidlashicha: *"Har qanday nazariyaning asosida ma'lum darajada fundamental qoidalar yotadi. Nazariya ushbu qoidalarga tayangan holda amaliy masalalarning yechimini topish uchun miqdoriy usullarni ishlab chiqishga yordam beradi"* [16].

Ushbu olimlarning mulohazalariga tayangan holda, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar joriy holatiga doir elektron fayl ko'rinishidagi axborotlarni qayta ishlashning yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarini har biri uchun o'ziga xos bo'lgan tartib va qoidalar ishlab chiqilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan mulohazalardan xulosa chiqargan holda shuni ta'kidlash joizki, A_p ($p = 1, m$) va B_f ($f = 1, n$) xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar joriy holatiga doir tartiblangan axborotlarni ta'kidlab o'tilgan bosqichlarda qayta ishlanishi mazkur qarzdorliklarning:

- joriy holatini aks ettiruvchi iqtisodiy-matematik ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni tahlil qilish;
- ekonometrik modellarni shakllantirish;
- zanjirsimon ketma-ketligining grafikli ko'rinishini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlarni yaratib beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi muddati o'tgan qarzdorliklar joriy holatiga doir axborotlar maxsus jadvalga belgilangan qoidalar asosida to'liq kiritib bo'lingach, ushbu jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda mazkur qarzdorliklarni turli kesimlarda, xususan:

- hududlar (jumladan, alohida bir tuman, shahar, viloyat) kesimida;
- banklar (jumladan, noto'lovlar juft ishtirokchilarining tegishli hisobvaraqlari ochilgan bir bank yoki bank filiali) kesimida;
- noto'lovlar juft ishtirokchilarining banklardagi tegishli 20208, 20210, 20212, 20214, 20218 va hokazo bank hisobvaraqlari kesimida;
- vazirliklar va ularga tegishli korxonalar, tashkilotlar kesimida;
- qarzdorlik summalarini katta, kichik yoki ma'lum bir diapozonga tegishli summalarga toifalagan holda;
- aniq bir sanaga yoki ma'lum bir davr kesimida;
- tanlangan bir yoki bir guruh xo'jalik yurituvchi subyektlar kesimida;
- va hokazo bizni qiziqtirgan boshqa mezonlar asosida ham tahliliy ishlarni amalga oshirishga hamda mazkur qarzdorliklarning grafikli ko'rinishini tahlil qilgan holda qarzdorliklarni iqtisodiy richag va mexanizmlar yordamida imkon qadar qisqartirishga imkoniyat yaratadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyotining muhim talablaridan biri shundan iboratki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari samarali bo'lishi lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektni yetarli darajadagi samaradorlikni ta'minlamagan holda ya'ni, bozor tamoyillariga zid ravishda faoliyat yuritishi pirovard natijada nafaqat ushbu xo'jalik subyektni balki, unga aloqador bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni ham moliyaviy xususan, muddati o'tgan qarzdorliklar muammosiga duchor qilishining ehtimoli yuqori.

Shu sababli ham bozor sharoitida muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari muammosidan «himoyalash» uchun har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z faoliyatini yetarli darajada samarali bo'lishiga alohida e'tibor qaratishi talab etiladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida muddati o'tgan qarzdorliklar yuzaga kelganda, uni tahlil qilish va muammoning maqbul yechimlarini topishda mazkur qarzdorliklar zanjirsimon ketma-ketligining grafikli ko'rinishini shakllantirilishi muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. [How does excessive debt hurt an economy?](#)
2. <https://carnegieendowment.org/chinafinancialmarkets/86397>.
3. Агентство статистики при Президента Республики Узбекистан: "Социально экономическое положение Республики Узбекистан. За январь – июнь 2023 года. Тошкент – 2023 г. – 471 с.
4. Ўзбекистон Республикасининг 2022 йил 12 апрелдаги "Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида" ЎРҚ-763 – сонли Қонуни. <https://lex.uz/docs/5957612>.
5. Фрэнк Дж. Фабоцци "Управление инвестициями". Москва: "Инфра-М", 2000 г., – 932 с.
6. Business Debt Collection Rights: Everything You Need to Know. <https://www.upcounsel.com/business-debt-collection-rights>
7. Д.О. Чухланцев, диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук на тему "Моделирование финансовых потоков в вертикально интегрированной компании и рационализация её взаиморасчетов с контрагентами". Москва, 2002 г., 162 с. www.dissercat.ru.
8. А.Н. Катулев, Г.В. Колесник, В.Н. Михеев "Методы редукции графов в задачах реструктуризации задолженности предприятий". Международный журнал "Программные продукты и системы". Выпуск журнала №2, за 1999 г., – 26 с. <http://www.swsys.ru/index.php?page=article&id=931&lang>
9. Н.Н. Калиткин "Оптимальный взаимозачет долгов предприятий". Журнал: "Математическое моделирование", том 7, номер 1, за 1995 г., – 118 с. www.math-net.ru
10. А.А. Самарский, А.П. Михайлов "Математические моделирование: Идеи. Методы. Примеры". Москва: "Наука. Физматлит", 1997 г., – 370 с.
11. Matteo Tomaselli. "Economic Growth and Public Debt: Beyond Debt-Thresholds". (Doctoral Thesis. University of Trento School of Social Sciences. Theoretical and Empirical Issues. 2017 / 2018 Academic Year). <https://pdfs.semanticscholar.org/d8b1/30d4d07b37f229be76d38c63bf4b0779276b.pdf>.
12. М.Г. Делягин "Экономика неплатежей: как и почему мы будем жить завтра". Москва: "ОАО Оригинал". 1997 г., – 396 с.
13. Радионов Н.В., Радионова С.П. "Основы финансового анализа: математические методы, системный подход". Санкт-Петербург: "Альфа", 1999 г., – 592 с.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

